



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ZAMONAVIY JAMIYATDA VAQT TUSHUNCHASINING TALQINI (TURK VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Shorasulova Arofat Ibroxim qizi

Sharqshunoslik universiteti

Turk tili òqituvchisi

Annotatsiya: *Vaqt kabi yuzaki qaraganda jo ‘n, zamiriga boqilsa o‘ta tilsim va mavhum narsani (uni narsa deb ham, narsa emas ham deb bo‘lmaydi) poetik mavzu qilib olish, uni munosib tarzda yuksak poetik mezonlarda ochib berish uchun bu ishga qo‘l urgan ijodkor bir vaqtning o‘zida ham ulug‘ shoir, ham faylasuf bo‘lmog‘i, ya’ni mavhum fikrdan she‘r yaratmog‘i, fikr qa‘ridagi jozibani kashf etmog‘i kerak*

Kalit so‘zlar: Vaqt, konsept, tilshunoslik, leksik birliliklar, iboralar, maqol, abstrakt, obyektiv, qiyosiy tahlil.

Kirish

Vaqt – inson hayotidagi eng qimmatli omillardan biri bo‘lib, u madaniyat, til va ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyat vaqtini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi va undan foydalanish usullari madaniy an‘analarga bog‘liq. Turk va o‘zbek jamiyatlarida vaqt tushunchasi o‘xshash bo‘lsa-da, ayrim farqlar ham mavjud. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda vaqt tushunchasining talqini turk va o‘zbek tillari misolida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek va turk tillarida vaqtning lingvistik ifodalanishi ham zamonaviy hayot tarziga moslashgan. Masalan, internet va texnologiyalar rivoji tufayli turk tilida “hemen” (darhol), “anında” (zudlik bilan) kabi so‘zlar ko‘p ishlatilayotgan bo‘lsa, o‘zbek tilida “tezkor”, “zudlik bilan” kabi so‘zlarning qo‘llanilishi ortmoqda.

Vaqtning Lingvistik Talqini

Turk va o‘zbek tillarida vaqt bilan bog‘liq ko‘plab iboralar mavjud. Masalan, turk tilida “Zaman su gibi akip gidiyor” (“Vaqt suvdek oqib ketmoqda”) iborasi o‘zbek tilidagi “Vaqt suvdek oqadi” ifodasi bilan o‘xshashdir[1]. Bu iboralar vaqtning tez o‘tishini anglatadi. Shuningdek, turk tilida “Vakit nakittir” (“Vaqt – pul”) degan ibora bor, bu vaqtning qadrini iqtisodiy nuqtai nazardan ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “Vaqtni bekorga sarflama” kabi iboralar vaqtning unumli ishlatilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Vaqt hodisasi bir yo‘la bir necha — fizika, matematika, astronomiya va boshqa fanlarda o‘rganiladi. Vaqt ishtirok etmagan jarayonning o‘zi yo‘q. Badiiy adabiyot otlig‘ yaratilqning ham zaruriy ingredienti, o‘ta nozik, ko‘z ilg‘amas, ammo hamisha har yerda hoziru nozir masallig‘ vaqtadir. “Tarix — bu vaqt doirasida kechadigan jarayonlarni o‘rganish bo‘lib, lekin vaqt nima ekanini hech kim bilmaydi”, deb yozadi mashhur olim L.Gumilev[2].

Vaqt kabi yuzaki qaraganda jo‘n, zamiriga boqilsa o‘ta tilsim va mavhum narsani (uni - narsa deb ham, narsa emas ham deb bo‘lmaydi) poetik mavzu qilib olish, uni munosib tarzda yuksak poetik mezonlarda ochib berish uchun bu ishga qo‘l urgan ijodkor bir





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



vaqtning o‘zida ham ulug‘ shoir, ham faylasuf bo‘lmog‘i, ya’ni mavhum fikrdan she’r yaratmog‘i, fikr qa’ridagi jozibani kashf etmog‘i kerak.

Buyuk donishmand Aristotel o‘zining “Fizika” asarida vaqt haqida to‘xtalar ekan, masalani “vaqt mavjud narsalar sirasiga kiradimi yoki nomavjud narsalar sirasiga, so‘ng uning tabiat qanaqa” tarzida qo‘yadi. Binobarin, vaqt fizikaviy aniq yoki poetik hissiy shaklda o‘rganilmasin, hamisha sirli hodisa bo‘lib qolaveradi.

“Vaqt” she’ri yaratilishidan sal o‘tiboq, 1946 yili (she’rga 19.9.45 sanasi qo‘yilgan) “Hozirgi o‘zbek adabiyotidagi tizma so‘zning cho‘qqisi” (A.Qahhor) deya baholangan. She’rning yozilishiga turtki bo‘lgan voqeа sarlavha ostida aniq qayd etilib, “Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o‘g‘liga bag‘ishlangan” deb yozib qo‘yilgan. Bu shunchaki oddiy bag‘ishlov bo‘lmay, uni semiotik ochqich, deb baholash mumkin. Bag‘ishlovdan boshqa tafsilot yo‘q. Lekin tarjimon Aleksandr Naumov shoir tilidan yozib olgan “Yo‘l tugamaydi” (“Put ne konchaetsya”) sarlavhali suhbatida G‘afur G‘ulomning qator asarlari, jumladan, “Vaqt” she’ri haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Unda aytishicha, shoirga zabit jiyani taqdim etgan soat oddiy, ya’ni do‘kondan xarid qilingan yangi soat emas, balki trofey soat bo‘lgan. Soat azal-azaldan vaqt o‘lchagich asbob, lekin trofey soatning boshqa qo‘shimcha belgisi ham bor, u tutilgan, dushmanidan o‘lja tarzda olingen buyum. Buni qayd etish muhim.

Shoir ushbu suhbatda ham hassos ijodkor, ham teran adabiyotshunos sifatida “Vaqt”ning tug‘ilishidagi ikki jihatni aniq qayd etadi.

Birinchi jihat. Shoir sovg‘a haqida gapirib, deydi: “Uni oldimu sal ijirg‘andim, soatni ko‘riboq o‘yladim, uni qandaydir nemis, fashist taqqan, buning ustiga u halok bo‘lgan... Shunday qilib, soat 45-yil mayigacha qaydadir yotdi. Bayram tantanalari avji qizigan payt tasodifan oldimdan chiqdi. Ongimda aniq shakllangan fikr bo‘lmasa-da, men uni endi taqishim mumkin, deb o‘yladim. Bir to‘yda qadah so‘zi aytar ekanman, dedim: mening bilagimdagи trofey soat bejizga emas, ilgari u dushman uchun vaqtini o‘lchasa, endi u bizning vaqtini ko‘rsatmoqda!

Bizning vaqt... Lekin bu o‘ta umumiyy ramz bo‘lib, u hamma narsani o‘ziga sig‘dirardi. She’r zaruriyati ongda pishib yetilgandi; lekin Vaqt obrazi xuddi bepoyon suv sathidek edi: men bir sohilda turar, ikkinchi sohilni esa ko‘ra olmasdim...”[3, 26].

Ikkinci jihat. Yana allomaning so‘zlari: “Bir kuni, chala-yarim uyqusiz tundan keyin tongda shahar aylanishga chiqdim, ko‘chada sayr qilib yurib, nashriyot eshigiga kelib qolibman. Adabiy tahririyatda ikki kishi bor edi — muharrir do‘stlarimdan biri va korrektor qiz. Men beixtiyor salomlashdim, beixtiyor savolga javob berdim; qiz menga yonlab turardi, men uning uzun mayin kipriklariga boqdim. Ular xuddi tungi kapalak qanotiday ko‘tarilib-tushardi... Men yana qaradim: kapalak yana qanotlarini yozdi. Ko‘zini pirpiratdi... va men ushbu oniy lahzaniarang ilg‘ay oldim. Mana sizga mangulikning ikkinchi chegarasi, ibtidolar ibtidosi! Ayni shu emasmi lahzaning jonli obrazi... ko‘z ochib-yumgulik lahma? Va ilk kalit band, meni uzoq qiynagan, uni topish amrimahol mo‘jiza, xuddi havodan moddiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



nimarsa hosil qilishday tuyulgan tansiq band to‘satdan o‘z oyog‘i bilan keldi va xuddi bayramda otiladigan mushak kabi mening tasavvurim osmonida portladi”.

Vaqtning Madaniy Talqini

Turkiya va O‘zbekistonda vaqtga bo‘lgan munosabat biroz farqlanadi. O‘zbek madaniyatida vaqt ko‘proq jamoaviy qadriyatlar bilan bog‘liq. Masalan, mehmono‘stlik va bayramlar vaqt bilan bog‘liq muhim tushunchalar hisoblanadi. Turk madaniyatida esa zamonaviylik ta’sirida vaqt yanada funksionalroq qo‘llaniladi. Ishbilarmonlik muhitida vaqtga aniq rioya qilish odat tusiga kirgan.

Zamonaviy Jamiyatda Vaqtga Munosabat

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli vaqt tushunchasi yanada o‘zgardi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli odamlar real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi[4]. Turkiya va O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalar vaqtini boshqarishda muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, onlayn ta’lim, masofaviy ish kabi tushunchalar zamonaviy jamiyatda vaqtini boshqarish usullarini o‘zgartirdi.

Lahza uchun qo‘yilgan haykalni lahzaga qo‘yilgan haykal deb ham talqin qilish mumkin. Lahzaga haykal qo‘yish uni to‘xtatishga urinish, hech bo‘lmasa, shunga ilinj demakdir. Ushbu nuqtada “Vaqt” she’ri Gytotening “Faust” tragediyasi bilan fikr-g‘oya jihatidan kesishadi[5]. Faustning Mefistofel, iblis bilan tuzgan shartnomasi aynan lahzaga oid edi:

Agar men bir onni ulug‘lar bo‘lsam,
“To‘xta, ey soniya!” — deb aytsam agar,
Seni tutquningman mayli o‘sha dam.

Ikki o‘rtadagi kesishuv nuqtadan ma’no chiqarish maxsus ilmiy izlanishlar mavzusidir. Lekin bir fikrni aytish joiz. Nega Mefistofel, iblis o‘ziga ishongan holda bunday shartnomaga jur’at qiladi, u inson, ya’ni Faust hech qachon lahzani (asliyatda Der Augenblick) ulug‘lamaydi, to‘xta, ey soniya deb aytmaydi, ya’ni hayotdan shu darajada ma’naviy lazzat topa olishiga ishonmaydi, shekilli. Dastlab bunga Faustning o‘zi ham ishonmaydi. Gytotening realist san’atkorligi shundaki, asar oxirida uning Fausti bunday baxtga (baxtli onga) to‘liq erishmaydi, u faqat inson qachondir yetishi mumkin bo‘lgan baxtli onlarni tasavvur qilibgina, ya’ni nasiya tariqasida deydi:

O‘shal soniyani sezib oldindan,
Eng oliv lahzada turibman bu dam.

“Vaqt” she’rida esa “Umrdan o‘tajak har lahza uchun” haykal qo‘yishga da’vat etiladi. Bu insonni tinimsiz ijodga, yaratishga, lahzani bo‘ysundirishga undash demakdir. Binobarin, inson yaratgan buyuk ma’naviy obidalar ushbu “eng oliv lahzada” dunyoga kelgan va o‘tkinchi, chopag‘on vaqtga qo‘yilgan sobit haykallar emasmi?

She’rning ichki olamiga yanada chuqurroq kirishga imkon beradigan bir holat bor. Bu asar yaratilgan paytda hokimi mutlaq bo‘lgan, shu bois she’rga suqilib kirgan Stalin nomi bilan bog‘liq.

“Vaqt” she’rining ilk nusxasida bu nom ikki marta uchraydi. Jami o‘n besh band, oltmish misradan iborat she’rning dastlab 7-bandida, so‘ng 14-bandida. Keyingi o‘rinda bir oz





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



nojo‘ya ishlataligandek tuyuladi: “Har lahza Stalin umriderk uzun...”. Shuning uchun shoir bu nom o‘rniga bandga va she’rga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashgan “zamonlar” so‘zini qo‘yib, asar potentsiyasidagi asl ma’noni go‘yo qayta tiklaydi¹⁵.

Xulosa

Vaqt – har qanday jamiyat uchun muhim tushuncha bo‘lib, uning talqini madaniyat va tilga bog‘liq. Turk va o‘zbek tillarida vaqt tushunchasi bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishi jamiyatning turli jihatlarida farqlanadi, turk va o‘zbek tillarida vaqt konseptining lingvomadaniy talqini turli xil yondashuvlarga ega bo‘lib, bu har ikki xalqning madaniyati va dunyoqarashini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy dunyoda vaqtini samarali boshqarish eng muhim qadriyatlardan biriga aylanib bormoqda. Keljakda raqamli texnologiyalar va globalizatsiya vaqt tushunchasiga yanada katta ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff, G. (1987). Cognitive models and prototype theory. In U. Neisser (Ed.), Emory symposia in cognition, 1. Concepts and conceptual development: Ecological and intellectual factors in categorization p. 68 Cambridge University Press
2. Лев Николаевич Гумилёв. Этногенез и биосфера Земли. – М: 1979 г.
3. Александром Наумов. Биография замысла. Беседы с мастерами узбекской литературы. – Ташкент: 1974, стр. 28–29
4. «Rebel angel. Wood, Bridget. London: Headline Book Pub. plc, 1993, pp. 162-252. 2543 s-units.»
5. Jackendoff R. Semantics and Cognition. Cambridge (Mass.), –Berlin: Mouton de Gruyter. 1993. – 16s.
6. Barbara Adam “Time and Social Theory” Blackwell publishers, Oxford 1991:
7. Schiffer S, Steele S (1988) Cognition and Representation. Westview Press, Boulder

¹⁵ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 45-46-sonlaridan olindi.

